



## O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI

**Ostonov Muhriddin  
Bahridin o'g'li**


*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy xavflarni boshqarishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari nafaqat fuqarolar va korxonalar manfaatlarini himoya qiladi, balki to'plangan sug'urta badallarini investitsiyalarga yo'naltirish orqali milliy iqtisodiyotning muhim investorlari sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu sababli ularning investitsion faoliyatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda sug'urta sohasida bir qator institutsional islohotlar amalga oshirilib, bozorga yangi ishtirokchilar kirib kelmoqda, raqamlashtirish jarayonlari kengaymoqda va moliyaviy xizmatlarning sifati oshib bormoqda. Biroq, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati hali ham yetarli darajada diversifikatsiyalashmagan, risklarni boshqarish tizimlari to'liq shakllanmagan va investitsion siyosatni takomillashtirish zarurati mavjud.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish jarayonida sug'urta tashkilotlari nafaqat sug'urta xizmatlari ko'rsatishda, balki mamlakat moliyaviy bozorining muhim ishtirokchilari sifatida ham alohida o'rin tutmoqda. Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati ularning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, investitsiya faoliyatining samaradorligini tahlil qilish sug'urta tashkilotlari faoliyatining sifatli boshqaruvi va iqtisodiy natijalarini oshirish uchun dolzarb masalaga aylanmoqda.

2023-yil sug'urta xizmatlar bozorida 8059,7 mlrd.so'm sug'urta mukofotlari yig'ishga erishildi, bu o'tgan 2022-yilga nisbatan 29,3 foizga ko'pdir (umumiy sug'urta tarmog'ida o'sish o'tgan yilga nisbatan 64,4 foizga ko'p, hayot sug'urtasi esa o'tgan 2022-yilga nisbatan 78,8 foizga kamaygan).



### 1-rasm. Milliy sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari va to'lab berilgan sug'urta qoplamalarining o'zgarish dinamikasi<sup>1</sup>

Sug'urta qoplamalari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 22,1 foizga kamaygan, bundan umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta qoplamalari 42,7 foizga o'sgani bilan hayotni sug'urta qilish tarmog'i 69,7 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Sug'urta qoplamalaridagi bunday o'zgarish 2021-2022-yillarda hayot sug'urtasi bo'yicha berilgan qator imtiyozlarning bekor qilinishi natijasida yuzaga kelganligini tahmin qilishimiz mumkin. Shuningdek, 2022-yilda hayot sug'urtasidagi sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamalarini (jamg'arib boriladigan) yalpi qaytarish amaliyoti ko'zatilganligini ham ta'kidlashimiz mumkin.

“O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasining 2017-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-yanvargacha bo'lgan asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilib chiqamiz. Kompaniya barcha yo'nalishlarda jadal o'sishga erishgan. Ayniqsa, eksport sug'urtasi bo'yicha majburiyatlar 43 ming martadan ortiq oshgan, bu kompaniyaning xalqaro faoliyatda sezilarli rivojlanayotganini ko'rsatadi.

### 1-jadval

#### “O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasining asosiy ko'rsatkichlari<sup>2</sup>

| Ko'rsatkichlar                                    | O'lchov birligi | 01.01.2017y. | 01.01.2024y. | Marta o'sish | % da o'sish |
|---------------------------------------------------|-----------------|--------------|--------------|--------------|-------------|
| Qabul qilingan majburiyatlar hajmi, shu jumladan: | trln. so'm      | 58,6         | 492,4        | 8,4          | 841%        |
| Korporativ mijozlar                               | trln. so'm      | 57,2         | 427,9        | 7,5          | 747%        |
| Jismoniy shaxslar                                 | trln. so'm      | 1,3          | 64,5         | 49,1         | 4909%       |

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

|                                                    |                 |       |         |          |          |
|----------------------------------------------------|-----------------|-------|---------|----------|----------|
| Eksport sug'urtasi bo'yicha majburiyatlar hajmi    | mln. AQSh doll. | 0,059 | 2 547,0 | 43 169,6 | 4316959% |
| Sug'urta mukofotlari umumiy yig'imi, shu jumladan: | mlrd. so'm      | 103,9 | 1 233,9 | 11,9     | 1188%    |
| Bosh Kompaniya                                     | mlrd. so'm      | 65,9  | 1 034,2 | 15,7     | 1569%    |
| Filiallar                                          | mlrd. so'm      | 38,0  | 199,6   | 5,3      | 525%     |

“O‘zbekinvest” sug'urta kompaniyasi barcha asosiy faoliyat yo'nalishlarida barqaror o'sishga erishdi. Kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari, mijozlar bazasi va xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha rivojlanishi quyidagi jihatlarni ko'rsatdi. Jumladan: qabul qilingan majburiyatlar hajmi 8 baravardan ziyodga oshib, kompaniya milliy sug'urta sohasining yirik kompaniyasiga aylandi. Daromad bazasi sezilarli kengaydi va natijada, sug'urta mukofotlari yig'imi 11,9 baravarga oshib, moliyaviy barqarorlikga erishgan.

“O‘zbekinvest” sug'urta kompaniyasining 2017-yildan 2024-yilgacha bo'lgan asosiy operatsion ko'rsatkichlarini tahlili qilib chiqamiz. Ushbu yillar davomida mijozlar soni 7,5 baravarga oshdi, korporativ mijozlar 3,8 baravar, jismoniy shaxslar 8,2 baravar, xodimlar soni 441 dan 589 nafarga (+134%) o'sgani ko'rishimiz mumkin.